[2]. OECD. Anticipating Skill Needs and Adapting Higher Education: From Insight to Alignment. Getting Skills Right. Paris, OECD Publishing, 2026. DOI: 10.1787/827b3ca4-en.

[3]. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. Geneva: World Economic Forum, 2025.

[4]. Bianchi G., Pisiotis U., Cabrera M. GreenComp: The European Sustainability Competence Framework. Luxembourg, Publications Office of the European Union, 2022. DOI: 10.2760/13286.

[5]. Kazemier E.M., Damhof L., Gulmans J., Cremers P.H.M. Mastering futures literacy in higher education: An evaluation of learning outcomes and instructional design of a faculty development program. Futures, 2021, vol. 132, Article 102814. DOI: 10.1016/j.futures.2021.102814.

[6]. Karlsen J.E. Futures literacy in the loop. European Journal of Futures Research, 2021, vol. 9, Article 17, pp. 1–10. DOI: 10.1186/s40309-021-00187-y.

[7]. Wang Y., Zhu Y. Unlocking futures literacy: essential skills for students for an evolving world. Cogent Education, 2025, vol. 12, Issue 1, Article 2588021. DOI: 10.1080/2331186X.2025.2588021.

[8]. Martínez-Agut M.P., Monzó-Martínez A., Ortiz-Cermeño E. Assessment of GreenComp learning in the training of education professionals. Frontiers in Education, 2025, vol. 10, Article 1608850. DOI: 10.3389/ feduc. 2025.1608850.

[9]. Bertolini L., Gerritsen D., Sol K. Supporting students to become agents of change: Introducing and evaluating the Transition Cycle approach to teaching transformative skills. Futures, 2024, vol. 164, Article 103459. DOI: 10.1016/j.futures.2024.103459.

[10]. Ehlers U.-D. Towards a Future Skills Framework for Higher Education. In: Ehlers U.-D., Eigbrecht L. (eds.). Creating the University of the Future. Wiesbaden: Springer VS, 2024, p. 21–60. DOI: 10.1007/978-3-658-42948-5_2.

[11]. Ziafati Bafarasat A., Baker M., Cheshmehzangi A., Goodspeed R., Scott M., Sharifi A. Planning competencies and transformative pedagogy for sustainable development. Progress in Planning, 2025, vol. 200, Article 100996. DOI: 10.1016/j.progress.2025.100996.

[12]. Luo J., Zheng C., Yin J., Teo H.H. Design and assessment of AI-based learning tools in higher education: a systematic review. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 2025, vol. 22, Article 42. DOI: 10.1186/s41239-025-00540-2.

Ko‘makova Dilshoda Shirinqulovna (O‘MPU mustaqil tadqiqotchisi; dilshodakomakova487@gmail.com)

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Ushbu ishda integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyani qo‘llash orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari va ijodiy yondashuvini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *integrativ yondashuv, ijodiy fikrlash, fanlararo aloqadorlik, innovatsion metodlar, mustaqil fikrlash, kreativlik.*

Комакова Дилшода Ширинкуловна (независимый исследователь ОМПУ; dilshodakomakova487@gmail.com)

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В данной работе рассматриваются теоретические и практические аспекты развития творческого мышления у учащихся начальных классов на основе интегративного подхода. Анализируются возможности формирования самостоятельного мышления, навыков решения проблемных ситуаций и творческого подхода учащихся посредством применения междисциплинарной интеграции в образовательном процессе. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации.*

Ключевые слова: *интегративный подход, творческое мышление, междисциплинарная связь, инновационные методы, самостоятельное мышление, креативность.*

Komakova Dilshoda Shirinkulovna (independent researcher at the State University of Economics; dilshodakomakova487@gmail.com)

METHODOLOGY FOR DEVELOPING CREATIVE THINKING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Annotation. *This paper explores the theoretical and practical aspects of developing creative thinking skills in primary school students based on an integrative approach. It analyzes the possibilities of fostering students’ independent thinking, problem-solving skills, and creative approach through the application of*

interdisciplinary integration in the educational process. Based on the research results, practical recommendations have been developed.

Keywords: *integrative approach, creative thinking, interdisciplinary connection, innovative methods, independent thinking, creativity.*

Kirish. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf uchun ona tilidan tuziladigan o‘quv dasturlari fanga oid darsliklar va ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanmalarida o‘quvchilarining mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish va shular xususida tizimli ishlar olib borish, 1–3-sinf o‘quvchilari nafaqat ona tili o‘qitish metodikasi darslarda so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishi, balki ijtimoiy hayotda ham nutqiy vaziyatlarga duch kelganda, muammoni muloyim so‘zlash, hikmatomuz maqollarni keltirish, ba’zi o‘rinlarda buyuk siymolarning hikmatli so‘zlaridan namunalar keltirish va sharhlash, kelajakda o‘z kasbining etuk mutaxassisi hamda barcha nutq uslublarida o‘zining fikr-mulohazasini, munosabatini izchil ravishda belgilangan talablar asosida ifodalay olishi darkor. Shuning uchun, avvalo, tayanch, umumta’limda DTSda belgilangan nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan talablarni rejalar asosida nazariy ma’lumotlarni chuqur o‘rgatish, mashq va topshiriqlardan unumli foydalanish, dars jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash, ona tili darslariga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etilishini ta’minlash zarur. Bu esa ona tili ta’limidagi eng dolzarb hisoblangan bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Odatda, nutqiy kompetensiya o‘quvchilarning gapirish (dialogik hamda monologik nutq, rolli o‘yinlar, muhokama), tinglash (konspektlashtirish, matn mazmunini qisqacha bayon etish, lisoniy taxminlarni rivojlantirish), o‘qish (izlanuvchi, tanishtiruvchi, shaxsiy nuqtai nazarni shakllantirish, matndagi asosiy fikrni tushunish) hamda yozma nutq (ko‘chirib yozish, turli ish qog‘ozlarini to‘ldirish, tavsiflarni tuzish, etishmayotgan ma’lumotlarni to‘ldirish, ijodiy matnlarni yaratish) malakalari sifatida tushuniladi. Tinglash, o‘qish, so‘zlash, yozish malaka va ko‘nikmalarini egallab matn yaratish, yozma ish turlarini bajarish, monologik nutq yaratuvchisi – yakka shaxs tomonidan amalga oshiriladi. S. Sabirovning ta’kidlashicha, fikrni va ma’lumotni xatosiz yozish, ya’ni “imlo–bu savodxonlik, savodxonlik esa madaniylik belgisidir” [1;168-b.]. Insonda ma’lum bir ehtiyoj tufayli muloqotga kirishish istak-xohishi yuzaga keladi. Nutqni shakllantirish va harakatga keltirish fikrning nutqqa aylanishidagi tushuncha, tafakkurning rivojini belgilovchi tanlangan leksik birliklar va ularni bog‘lab turuvchi grammatik vositalarga bog‘liq. o‘zbek maktablari uchun ham keyingi yillarda til me’yorlarini belgilashda nazariy asos vazifasini o‘tagan Olim Usmon va Barot Azizovlarning to‘liqsiz o‘rta va o‘rta maktablar uchun tavsiya etilgan darsligi egalladi Keyinchalik, professor A.Borovskov rahbarligida tuzilgan darsliklar M.Shams, T.Sodiqovlarni darsliklariga nisbatan ancha mukammallikka egaligi bilan ajralib turadi. Yigirmanchi yillarning boshlarida yaratilgan o‘zbek tili darsliklari tarkibida o‘quv topshiriqlari mavjud emas edi. Keyinchalik, A.Borovkov boshchiligida 1950-yillarda yaratilgan darsliklarda o‘quv topshiriqlari kiritila boshlandi. Fanda integratsiya differensiatsiya bilan bevosita bog‘langan. Dialektik – moddiy metodologiya bevosita qarama-qarshi tabaqalashtirish jarayoni bilan ajralmas umumiylikda integratsiya tushunchasining mohiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan. Bunda qarama-qarshiliklarning umumiyligi qonuni ifodalanadi. Zamonaviy ilmiy bilim tuzilmasining ziddiyatliligi bilimlar integratsiyasi jarayonining obyektiv va qonuniyatli xususiyatini aniqlaydi. G.Kostyukning fikricha [2] “Tabaqalanish differensiatsiya – ruhiy jarayonlar va holat (xususiyat)larni ko‘payishiga olib kelsa, integratsiya–tartibga keltirish, subardinatsiya va tilning natijalarini ma’lum ketmaketlikda joylashtirishga olib keladi. Integratsiyalash yo‘li bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi hosil bo‘ladi [3]. Bu yangi tuzilma ilgari alohida-alohida bo‘lgan elementlardan sintezlash yo‘li bilan hosil qilinadi.

Differensiatsiyaning zamonaviy talqini ikki jihatni ajratadi [4:150-b.].

•alohida tabaqalashtirilgan qismlarining aloqadorlik holati va tizimning yaxlitdagi vazifalari;

•bunday holatga olib boruvchi jarayon [5];

•Gnoseologik jihatdan differensiatsiya va integratsiya bilish jarayonida analitik va sintetik tendensiyalar bilan bog‘langan hamda o‘rganiladigan yagona obyekt tomonlari va xususiyatlarining ko‘p qirraligini, yaxlitning xususiyatlari va ifodalarining o‘ziga xosligi aks ettiradi [6].

Tahlil va natijalar. Tahlillarimiz shuni ko’rsatadiki, integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mezonlari (motivatsiya, shaxsiy sifatlar, o‘zini o‘zi boshqarish, reflektivlik, kreativlik) mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish strategiyalari (muammoli, interfaol, ijodiy, ilmiy, amaliy, reflektiv) uzviyligini ta’minlash asosida rivojlantiradi. Bu o‘quvchining professionalligi, mahsuldorligi hamda shaxsiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishining o‘lchovidir. Demak, integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mezonlar motivatsiya, shaxsiy sifatlari, o‘zini-o‘zi boshqarish, refleksivlik, kreativ-

likdan iborat. O‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mezonlari (tartibga soluvchi, bilishga oid, komunikativni mantiqiy bilimlami o‘qitishning didaktik funksiyalari texnologiyasi bo‘yicha ijodiy layoqatini ifodalash asosida rivojlantiriladi. Shu munosabat bilan eksperimental ish jarayonida biz boshlang‘ich sinf o‘qiluvchilari uchun kichik o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqdik.

O‘quv tajribasi davomida quyidagi muammolarni yechish kerak:

1. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan o‘qitish uslubiyotlari samaradorligini tajribadan o‘tkazish hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini izchil shakllantirishga ko‘maklashish;
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash rivojining darajalarini asoslab berish;
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy kamoloti sur’atlarini o‘rganish.

Xulosa. Barcha yuqoridagi xulosalarni umumlashtirib, intellektual rivojlantirishning mazmuniga oid mezonlar(belgilar, ko‘rsatkichlar) masalasini hal etish lozim, degan fikr vujudga keladi va tadqiqotimiz natijasida boshlang‘ich sinf fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mezonlari quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘lishini aniqladik:

•fikrlashni mustaqilligi (erkinligi);
•berilgan mantiqiy topshiriqlarni hal qilishda topqirlikning tezligi;
•o‘quv materialini o‘zlashtirishning tezligi va mustahkamligi;
•muhim bo‘lgan narsani muhim bo‘lmagan narsadan ajirata bilish;
•fikrlashdagi tanqidiylik.



Shunday qilib, ko‘rgazmali vositalar orqali boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish zarur bo‘lib, ularni tegishli mazmun, shakl va usullarda ko‘rsatishming ahamiyati katta. Ular asosida o‘quvchilar o‘quv materialini tez aniq ilg‘ab oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Sabirov B.E. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini informatika ta’limiga tayyorlash metodikasi. Ped. fan. nom. ... dis., Toshkent, 2012, 168-bet.

(2). Abdullayeva N.M. Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss., Namangan, 2020.

(3). Ahmedova N. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bozyicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Toshkent, 2020, 161-bet.

(4). Самсиков С.А. Интегративный подход к подготовке учителей начальных классов (логический аспект). Дис. ... канд. пед. наук, 13.00.01. Рязань, 2000. 212 с. РГБ ОД, 61:01-13/150-9.

(5). Костюк Григорий Силович. https://ru.wikipedia.org

(6). Талызина Н.Ф. Методика составления обучающих программ. Учебн. пособие, М., изд-во МГУ, 1980.

Maxmudova Zulxumor Alim qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti; zulhumor.m@urdu.uz)

LOYIHA ASOSIDAGI TA’LIMNI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING YOSH XUSUSIYATLARIGA MOSLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada loyihaga asoslangan ta’lim (PBL) metodologiyasini 6–11 yoshli boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tatbiq etishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlar asosida*